

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 4



TOHKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

IQTISOD

- 1. Odilbekova Xonimjon Jahongir qizi. Rudenko Inna Yurevna.**
 QATTIQ MAISHIY CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH:
 XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR.....8
- 2. S.M.Raximova. V. M. Baxtiyarova.**
 RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONIDA TIBBIY XIZMATLAR
 KO‘RSATISHNI MOLIYALASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....13
- 3. S. Allayarov.**
 MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA STARTAP LOYIHALARDAN
 FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI.....16
- 4. Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li.**
 EKSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQA
 RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....20
- 5. Matkarimov Feruz Bekturdiyevich.**
 MINTAQA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINING GLOBAL BOZORDA
 RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....27
- 6. Yulduz Yaqubova Raimovna.**
 OZIQ-OVQAT SANOATIDA TEXNIKA TARAQQIYOTI, INNOVATSION
 TRANSFORMATSIYA VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....33
- 7. Masharipova Xosiyat Matrasulovna. Xalbayeva Maftuna.**
 XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK OMILLAR VA BARQAROR
 HUDUDIY RIVOJLANISH MASALALARI.....38
- 8. Sattarova Dilfuza Dilshodbekova.**
 O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY
 ASOSLARINING YARATILISHI.....43
- 9. Ismailova Gulruh Faxriddinovna.**
 INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALAR VA HUDUDIY IQTISODIY NOMUTANOSIBLIK:
 MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....48
- 10. Jumaniyazova Sharifa Rashidovna.**
 TURISTIK MAHSULOTLAR BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINI
 RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....54
- 11. Li Yang.**
 EDIGITAL SILK ROAD AND SUSTAINABLE TOURISM: ANALYZING THE ADAPTATION
 OF CHINESE DIGITAL PLATFORMS IN UZBEKISTAN.....58
- 12. Sharipova Asaloy. Rudenko Inna Yurevna.**
 THE EFFECTIVENESS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN WATER RESOURCE
 MANAGEMENT.....64

13. Турдиева Якитжан Хайитбаевна.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....68

14. Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li.

XORAZM VILOYATIDA IQLIM O'ZGARISHI VA INSTITUTIONAL OMILLARNING MINTAQAVIY BARQAROR EKOLOGIK-IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....72

TARIX

1. Дилафруз Ийманова Абдиманнобевна.

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КАДРЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, МОДДИЙ АҲВОЛИ: МУАММОЛАР ВА САБОҚЛАР (1925-1941 ЙИЛЛАР).....79

2. Ahmadjonova Inobat Baxodir qizi.

MOHENJO-DARO VA HARAPPA SIVILIZATSIYALARINING PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI.....88

3. Otamuradova Roviyajon Olimboyevna. Joldasova Ozoda Ergash qizi.

MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, VATANIMIZNING QADIMIY VA BOY TARIXINI O'RGANISH.....92

4. Saotboyev Rahmatjon Madamin o'g'li.

XORAZM VOHASIDA IBTIDOIY SAHNAVIY UNSURLAR VA MAROSIMIY TOMOSHALAR: IJTIMOIIY-MADANIY VA TARIXIY ASOSLAR.....95

5. Саидов Шавкат Жумабаевич.

XX АСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....100

6. Salayev Umrbek Kadambayevich.

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TOSH VA NEOLIT DAVRLARIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI.....106

7. Safarov Tolib Todjiyevich.

XIVA XONLIGIGA KO'CHIB KELGAN TURKMAN URUG'LARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR.....111

8. Atadjanova Dilnoza Ganiyevna.

JANUBIY XORAZM HUDUDINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISH TARIXI.....116

FILOLOGIYA

1. Xusainova Shaxnozabonu Ergashevna.

ABU RAYHON BERUNIYNING "OSOR UL-BOQIYA" ASARI VA UNING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA SHARQ RUHI HAMDA KONTEKSTUAL O'ZIGA XOSLIKNI SAQLASH..121

2. B.Q. Sapayeva.

O'ZBEK TILI GEMERONIMLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI.....125

- 3. Sobirova Gulasal Zokir qizi.**
THEORETICAL APPROACH TO LINGUISTIC-COGNITIVE APPROACHES IN MODERN LINGUISTICS.....129
- 4. Mokhinur Murodova Azamat qizi.**
ABBREVIATION AND INTERNET SLANG USAGE AMONG MDIST STUDENTS IN VIDEO GAMES AND ONLINE CHATS.....136
- 5. Yusupova Soxiba Islombek qizi.**
INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR SHE’R VA QO‘SHIQLARIDA EMOTSIONAL BO‘YOQDOR SO‘ZLAR.....143
- 6. Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich.**
BADII ASAR USLUBINI QAYTA TIKLASHDA MUTARJIM MAS’ULIYATI (E. HEMINGWAYNING “TO HAVE AND HAVE NOT” ASARI VA UNING TARJIMASAI MISOLIDA).....147

PEDAGOGIKA

- 1. Rajabov Shaxzodbek Baxrom o‘g‘li.**
UMUMIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIK JARAYONIDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING BADIY MAHORATINI OSHIRISH.....153
- 2. Davletov Mayliboy Yusupovich.**
O‘ZBEK CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXINI O‘RGANISH ORQALI TALABALARNING MUSIQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI.....161
- 3. Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna.**
VERIFIKATSIYA TAMOYILINING PEDAGOGIK JARAYONDAGI MOHIYATI.....166
- 4. Allamuratova Xurliman.**
TA'LIM KONSEPSIYASINING MOHIYATI VA METODIKADAGI O‘RNI.....170
- 5. Sharipov Allabergan Kamilovich.**
JISMONIY TARBIYA VA SPORT YO'NALISHI BITIRUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIK DARAJASINI ISH BERUVCHILAR BAHOSIGA KO'RA TAHLIL QILISH: SO'ROVNOMA ASOSIDA EMPIRIK TADQIQOT.....176
- 6. Jammатов Jasurbek Sharipovich. Komilova Olima Allabergan qizi.**
TAYYORGARLIK DARAJASINI KROSS-FIT MASHG‘ULOTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DOLZARBLIK VA ISTIQBOLLAR.....183
- 7. Ким Татьяна Сергеевна.**
СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЕРОГЛИФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ...189

PSIXOLOGIYA

- 1. Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna. Sobirova Xosiyat Rustambekova.**
BOSHLANG‘INCH SINIF O‘QUVCHILARNING XOTIRASINING NEYROPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....195
- 2. Xashimova Sayyora Xolmuradovna.**
IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....199
- 3. Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li.**
ERKIN KURASHCHILARDA MUSOBAQA OLDI EMOTSIONAL HOLATLARINING MOTIVATSION JARAYONLARGA TA’SIRI.....203

UO'K 94 (575.1): 330 (021)

Safarov Tolib TodjiyevichBuxoro davlat texnika universiteti ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrası dotsenti
Safarvtolib407@gmail.com Orsid ID: 0009-005-1337-2975**XIVA XONLIGIGA KO'CHIB KELGAN TURKMAN URUG'LARI HAQIDA AYRIM
MA'LUMOTLAR**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20157600>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligida hukumronlik qilgan turli xonlar davrida xonlik hududiga ma'lum bir sabablar tufayli ko'chib kelgan turkman urug'lari, ularning joylashuv o'rni, urug'larning o'zaro munosabatlari, ularning xonlik ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy hayotida tutgan o'rni, xon boshqaruv ma'muriyatining turkmanlarni ixtiyoriy ko'chirib keltirishdagi siyosati hamda turkman urug'laridagi boshqaruv tabaqalarining nufuzi haqid mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Mang'ishloq, Ustyurt, Qoraqum, yomut, ersari, choudor, qaradoshli, Ko'hna Urganch, Xonobod.

Сафаров Толиб ТоджиевичДоцент кафедры социальных наук и физической культуры, Бухарского государственного
технического университета Safarvtolib407@gmail.com**НЕКОТОРЫЕ СВЕДЕНИЯ О ТУРКМЕНСКИХ РОДАХ, ПЕРЕСЕЛИВШИХСЯ В
ХИВИНСКОЕ ХАНСТВО**

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы о туркменских родах, переселившиеся по определённым причинам на территорию Хивинского ханства в период правления различных ханов, взаимоотношения между родами, их роль в социально-экономической и политической жизни ханства, а также, политика ханской администрации по добровольному переселению туркмен и авторитет правящих слоев в туркменских родах.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Мангышлак, Устюрт, Каракум, ямут, эрсары, чоудар, карадошли, Кухна Ургенч, Ханабад.

Safarov Tolib Todjievich Associate Professor of the Department of Social Sciences and Physical
Culture of Bukhara State Technical University Safarvtolib407@gmail.com

**SOME INFORMATION ABOUT THE TURKMEN CLANS THAT MIGRATED TO THE
KHIVA KHANATE**

Abstract: This article discusses the Turkmen clans that migrated to the territory of the Khanate for certain reasons during the reigns of various khans in the Khiva Khanate, their location, the

relationship between the clans, their role in the socio-economic and political life of the Khanate, the policy of the Khan's administrative administration in the voluntary resettlement of Turkmens, and the influence of the ruling classes in the Turkmen clans.

Key words: Khiva Khanate, Mangyshlak, Ustyurt, Karakum, Yamut, Ertsari, Choudor, Karadashli, Old Urgench, Khanabad.

Kirish. Turkman urug'lari Xiva xonligi tarixida XVI-asr boshlaridan boshlab katta rol o'ynay boshlagan. Xorazm vohasining sug'oriladigan yerlariga asta-sekinlik bilan kirib borib o'troqlashganlari sari turkmanlarning bu davlat hayotidagi ahamiyati ortib borgan. XIX-asrning so'nggi choragida ya'ni, Rossiya imperiyasi tomonidan Xiva xonligini bosib olinishidan oldin turkmanlar butun aholining 1/4 qismini tashkil etib xonlikdagi ikkinchi yirik etnik guruh hisoblangan[1]. Shu yondashuvdan qaralsa Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixi haqida unda yashagan turkman qabilalarining xonlik hududiga kelib o'rinishiga oid ma'lumotlarni o'rganmasdan turib masala to'g'risida tasavvurga ega bo'lish fikrimizcha, qiyin. Mang'ishloq, Ustyurt va Qoraqumning cho'l kengliklarida yashagan turkman qabilalari xo'jalik va siyosiy jihatdan qadimdan Xorazm vohasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Turkmanlar Xorazmda chorvachilik mahsulotlarini non va hunarmandchilik buyumlariga ayiriboshlab qahraton sovuqda o'z podalari bilan Xorazm vohasining chorva uchun yem-xashak topish osonroq bo'lgan chekka hududlariga ko'chib borganlar[2]. Aksariyat turkman qabilalarining ijtimoiy, etno-siyosiy tarixi Xorazm tarixidan ajralmasdir. Shu voqelikdan kelib chiqib biz ushbu maqolada Xiva xonligida hukmronlik qilgan xonlar davrida kelib o'rinishgan turkman urug'lari haqida ayrim mulohazalarni bayon qilishni lozim topdik.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tarixdan ma'lumki, Turkiston-general gubernatori Kaufmanning say harakatlari bilan 1867-yildan boshlab nashr ettirilishi yo'lga qo'yilgan "Turkiston to'plami"da O'rta Osiyo va xususan Turkiston o'lkasi hamda unga qo'shni bo'lgan mamlakatlarga oid asarlar va maqolalar yig'ila boshlangan. Katta hajmdagi mazkur to'plamda Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan hududlarga taalluqli turli mavzulardagi xilma-xil bosma materiallar kitoblar, jurnal va gazeta maqolalari o'rin olgan bo'lib, shuningdek, ushbu ma'lumotlar ichida Xiva xonligida istiqomat qilayotgan juda ko'p xalqlar haqida qiziqarli ma'lumotlar to'plangan. Ayniqsa, to'plamda XIX- asrning ikkinchi yarmi va XX- asr boshlarida Xorazm vohasidagi turkmanlarning siyosiy hamda etnik tarixi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan[3]. O'rganishga tortilayotgan tadqiqotga doir shuningdek, sharqshunos, turkolog Yu.E.Bregelning "XIX asrda Xorazm turkmanlari" asari Xiva xonligi hududiga kelib o'rinishgan hamda xonlik ma'murlari tomonidan olib kelingan turkmanlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, xo'jalik va madaniy hayoti haqida qiziqarli ma'lumotlarni beradi[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Umuman olganda turkman qabilalarining asosiy qismining G'arbiy Turkmaniston hududlaridan dehqonchilik vohalariga ko'chishi XVI asr o'rtalaridan boshlanib, ikki yo'nalishda Xorazm va Kopetdog' etaklari orqali amalga oshgan. Turli omillar turkmanlarning Xorazm vohasi tomon ko'chishiga sabab bo'lgan va jarayonga yordam bergan. Mang'ishloq, Ustyurt va Qoraqumning siyrak yaylovlarida yem-xashak va suvning yetishmasligi chorvachilikning rivojlanishini cheklab qo'ygan va turkmanlarni xo'jalikning boshqa turlarini, asosan baliqchilik va ovchilik bilan bir qatorda dehqonchilikni birga olib borishga majbur qilgan. Chorvachilik mahsulotlari yetishmovchiligini turkmanlar dehqonchilik vohalaridan keltirilgan g'alla bilan to'ldirishga alohida e'tibor qaratganlar[5].

Turkmanlar Xorazmda XVII-asrning 20-yillarda Isfandiyorxon (1623-1642) hukmronligi davrida ko'plab paydo bo'la boshlaganlar. Bular salorlar va ersarilar bo'lib, salorlarning zodagonlari birmuncha vaqt Xiva xonligida imtiyozli mavqega ham ega bo'lganlar. 1645-yilda Hazorasp yaqinida Abulg'ozixon turkmanlarni tor-mor qilgach, bu qabilalarning xonlik hayotidagi roli pasayib ketgan. Bu holatdan keyin ersari urug'i XVII- asrning ikkinchi yarmidayoq qisman Amudaryo bo'ylab Buxoro xonligiga ko'chib o'tganlar. Salorlarning bir qismi XVIII-asrda Xiva xonligida taka va yovmutlar bilan urug'lar ichida yuqori mavqega ega bo'lish uchun kurash olib

borganlar[6]. Manbalarda ayrim turkman urug'larining XIX- asrning birinchi yarmida Xiva xonligidagi joylashuvlari bayon qilingan.

Yovmutlar XVIII-asrning oxiridan boshlab asosan ikkita asosiy hududga joylashganlar. G'azovot kanalining quyi qismi, shu nomdagi shahardan g'arbda va Ko'hna Urganch viloyati, asosan, uning shimoli va g'arbida, Ustyurt va Sariqamishgacha chozilgan hududlarda. G'azovot hududida yashagan yovmutlar yuqori yovmutlar, Ko'hna Urganch yaqinida joylashgan yovmutlar esa quyi yovmutlar deb atalgan. Quyi yovmutlarning XIX-asrning o'rtalari yoki ikkinchi yarmida Ko'hna Urganchning shimoli-g'arbida Amudaryo toshqinlaridan hosil bo'lgan ko'llardan sug'orish uchun foydalanib o'rnashgan qismi ko'l yovmutlari deb ham atalgan[7]. Xorazm yovmutlarining aksariyat ko'pchiligi bayramali bo'limiga tegishli bo'lib, u o'z navbatida to'rtta yirik urug' bo'linmalaridan kelib chiqqan. Choudorlar XVIII-asr oxiri XIX-asr boshlarida Xorazm vohasining shimoliy qismidagi Orolbuyi hududlarida yashaganlar u yerda ularning Choudor qal'a nomli qal'asi bo'lgan[8].

XIX-asrning 30-yillarida Xorazmga Mang'ishloqdan choudorlarning yangi va ko'p sonli guruhleri ko'chib kelgan. Ko'chishga asosan siyosiy sabablar bo'lgan: Mang'ishloq va Bo'zachi manzilgohlari uchun qozoqlar bilan kurashning keskinlashuvi bu kurashda qozoqlar g'olib chiqqan, shuningdek, Xiva xonlarining 1832-yilgi Karelin ekspeditsiyasi va 1834-yilda Yangi-Aleksandrovsk istehkomi qurilgandan so'ng ruslarning turkmanlarga ta'siri kuchayishiga yo'l qo'ymaslikka intilishi. Ma'lumki, keyinchalik XVII asrning 60-yillarda choudorlar Porsu hududida ixcham guruh bo'lib joylashgan. Choudor qabilasi beshta yirik urug' bo'linmalaridan iborat bo'lgan: qora choudor, abdal, bo'zachi, burunjik va ig'dir[9]. Imrelilar Janubiy Turkmanistondan Xiva xonligiga Avaz inoq hukmronligining so'nggi kunlarida ko'chib kelganlar. 1803-1804-yillarda Xo'jayli hududidagi Omonquli kanali bo'ylab yer olganlar. Ular 1804-yilda Oqsaroy tumaniga, u yerdan esa 1806-yilda Yangiariq tumaniga yovmutlar hududlariga ko'chirilgan. Yangiariqda imerlilarning kichik bir qismi yashagan, qolganlari esa Toshhovuz hududida joylashgan edi[10]. Qoradashlilar janubiy Turkmaniston yerlaridan Xorazmga Muhammadrahimxon davrida ko'chib kelishgan. Bu qabilaning qolgan qismi 1830-yillarning boshlarida Xiva xonligiga ko'chib kelgan. Ko'rsatilgan to'rt qabila yovmut, choudor, imreli va qoradashli eng ko'p sonli qabilalar bo'lib, XIX-asr boshlarida Xorazm xonligi aholisi tarkibiga mustahkam o'rnashi olgan[11]. Ko'rib chiqilayotgan davrda Xiva xonligidagi turkman qabilalari orasida go'klanlar, ali-ililar va takalar ham muhim rol o'ynagan. Ogahiy ma'lumotlariga ko'ra, go'klanlarning birinchi guruhining Xorazmga kelishi 1817- yilda Yangiobga ularning oqsoqoli Sultonxon o'z yaqinlari va oilalari bilan xonning ishonchli himoyasi va homiyligida yashash uchun Xiva xonligiga ko'chib o'tgan davrdan boshlangan. 1826-yilda xonlikka yana bir guruh go'klanlar ko'chib kelib, Ko'kcha va Toshhovuz tumanlaridan yer olganlar. 1830-31- yillarda Xiva xonligidan go'klanlarning yana bir katta guruhiga yer berilgan. Lekin ularning asosiy qismi Janubiy Turkmanistondan ko'chib kelib, 1837-yilda Ko'hna Urganchning g'arbiy qismiga joylashganlar. Nihoyat, hali janubda qolgan go'klanlarning anchagina qismi 1847-yilda Xorazmga ko'chib kelgan. Bayoniyning aytishicha, 1848-yilda Xonob arig'i bo'yidagi yerlar go'klanlarga bo'lib berilgan. 1856-yilgacha bu hududlar go'klanlar yashaydigan ikkita asosiy tumandan biri edi. 1856-yilda turkmanlar qo'zg'oloni paytida go'klanlar janubga ko'chib ketishgan, ammo 1858-yil oxiri 1860-yil o'rtalarida Xiva xonligiga qaytib kelishgan[12]. Alili qabilasi, Ogahiyning ma'lumotiga ko'ra, Olloqulixon tomonidan 1830-yilda Qilichniyozboy arig'ining quyi oqimiga joylashtirilgan. Xiva xonlari arxivi hujjatlariga ko'ra, Toshhovuz hududida ham anchagina alililar bo'lgan. Bu ikki tumandagi alililarning bir qismi eski joylarida qolgan bo'lsa-da, 1850-yillarning boshlarida ularning qolgan qismi Qiziltaqir va Shohmurod kanalining yuqori qismiga ko'chirilgan[13]. 1779-yilda Xiva xonligida Yangiariq hududida qisqa muddat bo'lgan takalar 1816-yilda Muhammadrahimxon ularga Nayman kanalining quyi oqimida, Yangiariqning sharqida yer berganida ular shu yerda o'rnashgan. Taka urug'ining boshqa qismi Xorazm vohasining g'arbiy chekkasida, Uoz va Qandumqal'a mavzalarida o'rnashganlar[14]. Xorazmda sakarlar Bayoniyning ma'lumotiga ko'ra 1848-yilda Xonobod hududida, Qattigoqar arig'i bo'ylab yer olganlar. Mana shu barcha ma'lumotlarga qaraganda, sakarlar Xiva xonligiga 1848-yilda yoki undan sal oldinroq ko'chib kelganlar. Bu ma'lumotni

Ogahiy ham bilvosita tasdiqlab, u 1850-yildan boshlab sakar qabilasidan bo'lgan navkarlarning Xivaning Marv va Tajan yurishlarida ishtirok etganini eslatib o'tgan. 1855-yilda turkmanlar qo'zg'oloni boshlanishi bilan sakarlar Uozga, takalar yoniga ko'chib kelib, ular bilan birga 1856-yilda Xorazmdan ko'chib, Buxoro xonligiga qaytadilar[15]. Ata qabilasi Xorazmga XIX- asrning 20-yillarida ko'chib kela boshlagan. Bungacha atalar Balxan qo'ltig'i sohilida va Balxan tog'lari yaqinida yashaganlar. Ular u yerdan Xoja Yusuf qo'zg'oloni tor-mor etilgach, Astroboddan ko'chib kelgan yovmutlar tomonidan siqib chiqarilgan. Atalar Xiva xonligi hududlariga asta-sekin, kichik guruhlar bo'lib ko'chib kelganlar. Ular boshqa qabilalarga qaraganda ko'proq ko'chmanchi hayot tarzini saqlab qolganlar[16]. Arobachi qabilasining Xiva xonligiga ko'chib kelgan aniq sanasi noma'lum. Taxminan XIX-asr boshlarida ular choudorlar bilan yonma-yon bo'lishgan, biroq 1826-1831-yillarga oid turkman navkarlari ro'yxatida arobachilar qayd etilmagan. Arobachilarning bir guruhi 1848-yilda Xiva xonligiga ko'chib kelgan. Arobachilarning deyarli hammasi Amudaryoning o'ng sohiliga kelib o'rnatilgan. Shix qabilasining kichik bir guruhi XIX-asrning 20-yillarida Xiva xonligiga kelib o'rnatilgan. Ular Balxandan yoki Qoraqumdan ata urug'i bilan birga kelishgan[17].

XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligiga Janubiy Turkmanistondan maxtum qabilasining bir qismi ham ko'chib kelgan. 1870-yilda maxtumlar Qiziltaqir, Qandumqal'a hududidan yer olganlar. 1820-yillar oxirida Xiva xonligiga janubiy turkmanlarning maxonli qabilasi ko'chib kelgan. Ular Atrekdan Ilyali tumaniga ko'chib kelganlar. Salorlar Xiva xonligiga XIX-asrda Chorjo'ydan ko'chib kelgan. Xizirli qabilasining bir qismi XVII-asrdayoq Sariqamish va Yuqori Uzboydan ko'chib kelib, Xiva xonligi hududida joylashgan. Ular asosan Gurlan hududida, qisman Ko'hna Urganch va Yangi Urganch atrofida yashaganlar. Ilyali hududida turkmanlarning yana ikki guruhi Chandir va Og'arlar ham istiqomat qilganlar. Ular Xiva xonligiga XIX asrning 30-yillarida ko'chib kelganlar. Yuqorida qayd etilgan turkman urug'lari bilan bir qatorda Xiva xonligida sariqlarning uncha katta bo'lmagan guruhleri, asosan, oqo'ylilar ham yashaganlar ular xonlikning turli tumanlarida joylashganlar[18].

Tahlil va natijalar. Xiva xonligidagi turkmanlarning umumiy soni 30-40 ming o'tov bo'lib, ularning yarmi yovmutlar hissasiga to'g'ri kelgan. Aholi sonining ko'pligi bo'yicha ikkinchi o'rinda choudorlar turgan. XIX-asrning birinchi yarmida Xiva xonlari turkman qabilalarini Xorazmga jalb qilish siyosatini olib borganlar. Turkman urug'lari vakillarining ephilligi, dovyurakligi ularni xonlik qo'shinining asosini tashkil etishiga sabab bo'lgan. Shu sababdan turkman navkarlari bu vaqtda Xiva qo'shinining eng jangovar qismini tashkil etgib, ba'zi yurishlarda esa bu qo'shin deyarli faqat turkmanlardan iborat bo'lgan. Harbiy xizmat aksariyat turkmanlarning asosiy majburiyatiga aylanib, ularning Xiva xonligidagi mavqeini belgilab bergan. Janubiy Turkmanistondagi ba'zi qabilalarni jumladan, alili, qoradashli, go'klanlarni Xiva xonlari Xorazmga zo'rlik bilan ko'chirganlar, lekin shu bilan birga ularga, ayniqsa, urug'-qabila boshliqlariga turli imtiyozlar berganlar[19].

Xiva hukumati turkmanlarning boshqa guruhlarini ixtiyoriy ravishda Xorazmga ko'chib kelishiga alohida e'tibor qaratganlar. Ko'chib kelayotgan qabilalarga yordam tariqasida Xiva xonlari ayniqsa, urug' oqsoqollariga pul in'om qilganlar. Bundan tashqari Xorazmga ko'chib kelgan turkmanlar xon omborlaridan don bilan katta moddiy rag'bat ham olganlar va dastlabki vaqtlarda barcha majburiyatlardan ozod qilinganlar[20]. Turkmanlarda qozoq sultonlaridek imtiyozli tabaqa bo'lmagan. Turkman jamoalarining tepasida turgan zodagonlar shu jamoalarning tarkibiga kirgan va o'z qabiladoshlari bilan zodagonlik munosabatlari orqali bog'langan. 1872-yildagi "Yovmut turkmanlari" maqolasining nomalumi muallifining so'zlariga ko'ra, turkmanlarning oqsoqollari qatoriga urug'ning kattalari ham, boyroq yoki aql va jasurligi bilan ajralib turadigan shaxslar ham kirgan. Urug' zodagonlari badavlat va shaxsiy qobiliyati yuqori bo'lgan kishilardan yetishib chiqqan. Alohida urug' bo'linmalariga boshchilik qilgan oqsoqollar turkmanlarda turli atamalar bilan atalgan: yashulli, oqsoqol, kadxudo[21]. Bu atamalarning barchasi doimiy ravishda qo'llanilgan bo'lib, turkmanlar dastlab oqsoqollarni yashulli va oqsoqol deb atashgan, kadxudo atamasi esa keyinchalik eronliklar va Xorazm aholisidan o'zlashtirilgan deb taxmin qilish mumkin. Qanday bo'lmasin, XIX asrda turkmanlarda har uchala atama teng darajada bo'lgan, buni turkmanlarning o'z so'zlari ham, rus mualliflarining guvohliklari ham tasdiqlaydi[22]. Xiva yozma

manbalarida Munis va Ogahiy asarlarida hamda Xiva xonlari arxivi hujjatlarida turkman oqsoqollari deyarli faqat kadxudo deb atalagan. Bu atama bir necha ma'noga ega bo'lgan. Asosiy va eng keng tarqalgan oqsoqol atamasi unvonidan qat'i nazar, umumiy jamoa sifatida qo'llanilgan. Xorazm turkmanlarining oqsoqollari turli unvonlarga ega bo'lgan: xon, bek, vakil, baxshi[23]. Shunisi juda qiziqki, bu unvonlar orasida faqat urug' zodagonlari ichidagi ma'lum bir tabaqaga mansub kishilargina ega bo'lgan unvonlar yo'q. Bu umuman barcha turkmanlarni O'rta Osiyoning boshqa xalqlari qoraqalpoqlar, qozoqlar, o'zbeklar, qirg'izlardan sezilarli darajada ajratgan, natijada ularda urug' zodagonlarining imtiyozli yuqori tabaqasi yaqqol ajralib turgan, bu yuqori tabaqaga mansub shaxslar esa odatda biy unvoniga ega bo'lganlar. Bir qator ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, xon unvoni yo'lboshchining harbiy xizmatlarini e'tirof etish natijasida qo'lga kiritilgan bo'lishi mumkin[24]. **Xulosa.** Yuqorida bayon qilingan fikr mulohazalarga muxtasar xulosa qiladigan bo'lsak, Xiva xonligiga kelib joylashgan Turkman urug'lari turli tarixiy davrlarda turlicha sabablar tufayli azaliy yashab turgan hududlarini tark etganlar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki Xiva xonlari ham turkman urug'larini xonlikning turli hududlariga ko'chirib olib kelishga alohida e'tibor qaratib hatto rag'batlantirganlar. Ayniqsa, ularning dovyurakligi va epcilligi xonlik qo'shini tarkibiga harbiy xizmat uchun safarbar qilinishiga sabab bo'lgan. Umuman olganda Turkman urug'lari o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar Xiva xonligi tarixi uchun alohida ahamiyatga ega masaladir. Bundan tashqari Xiva xonligida kechgan ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda turkman urug'larining alohida o'rni bo'lib, ayniqsa ularning mehnatsevarligi, omilkorligi tahsinga sazovor bo'lgan. Shuning uchun ham Xiva xonligining XIX-asrning ikkinchi yarmi XX-asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, etno-siyosiy va madaniy tarixi masalalarini o'rganishda xonlik hududiga kelib o'rnamagan turkman urug'lari haqida tarixiy ma'lumotlarni o'rganish, tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

- 1.Брегел Ю.Э. Хорезмские туркмены в XIX веке. Издательство восточная литература. 1961. С 441.
- 2.Куропаткин А. Туркмения и Туркмены. С-Петербург. Типография В.А.Полетике 1879. С 63.
- 3.Михайлов М. Туркмены. [«Литературная Библиотека». 1867. № 13 и 14]. Туркестанский Сборник. Том 16, стр. 47-57.
- 4.Стратегический обзор Хивинского ханства. Составили полковники генерального штаба Соболевъ и Гродеков. Издано на правах рукописи по распоряжению туркестанского генераль-губернатора, генераль-адъютанта К.Н.Фонь-Кауфмана. 1882. Туркестанский Сборник. Том 336, стр, 83-159.
- 5.Туркмения и туркмены. (Туркестанский курьер, 1910. № 53,61,63). Туркестанский Сборник. Том 541, стр. 31-37. Статьи и заметки изъ русскихъ и иностранныхъ газетъ. Сборник составляется по поручению Туркестанского Генераль-Губернатора. Ташкентъ.

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahafaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].